

DAVLAT BOSHQARUVIDA MA'MURIY ORGANLARNING AHAMIYATI

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi
3-darajali yurist, magistr.

E-Pochta: shokhidaxonjiyanova@gmail.com

Tel: +998-91-327-45-05

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579367>

Annotatsiya. Ushbu maqolamda men boshqaruv organlari, boshqaruv ma'muriyati organlari va ularning vazifalari hamda jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati mavzusini yoritganman.

Kalit so'zlar: Boshqaruv tushunchasi, ma'muriy organlar, rahbar tushunchasi, huquq layoqati, muamala layoqati.

AUTHORITY OF ADMINISTRATIVE BODIES IN STATE MANAGEMENT

Abstract. In this article, I covered the topic of management bodies, management administration bodies and their tasks, as well as their role and importance in society.

Key words: The concept of management, administrative bodies, the concept of a leader, legal capacity, negotiation capacity.

ПОЛНОМОЧИЯ ОРГАНОВ АДМИНИСТРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Аннотация. В этой статье я затронул тему органов управления, органов управления и их задач, а также их роль и значение в обществе.

Ключевые слова: Понятие управления, административные органы, понятие лидера, правоспособность, переговорная способность.

KIRISH

“Ma'muriy huquq” atamasi lotincha “administratio” so'zidan olingan bo'lib, “boshqaruv huquqi” ma'nosini anglatadi. Shu sababli, “Ma'muriy huquq” fanining mazmun-mohiyatini ochib berishdan avval boshqaruv, davlat boshqaruvi tushunchalarining mohiyatini anglab olish lozim bo'ladi.

Boshqaruv davlat paydo bo'lmasdan oldin vujudga kelgan bo'lib, kimnidir yoki nimanidir yoxud qandaydir faoliyatga “yo'naltirish, unga rahbarlik qilish” ma'nosini anglatadi.

Huquqshunos olim Y.N.Starilovning fikricha, boshqaruv — bu boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi.

¹Bunda boshqaruv obyektiga sifatida turli xildagi hodisalar va jarayonlar, jumladan, inson, jamoa, ijtimoiy jamoatchilik, mexanizmlar, texnologik jarayonlar va boshqalar namoyon bolishi mumkin.

Boshqaruv subyektining obyektga nisbatan ta'siri boshqaruv tizimiga bevosita bog'liqdir.

¹ г Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Стариков Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 19.

Boshqaruv tizimi bu boshqaruv jarayonini ta'minlovchi mexanizm, ya'ni maqsadga muvofiq va kelishilgan holda funksiyalanuvchi o'zaro bog'liq elementlardir. Boshqaruv jarayonidagi bu elementlar orqaga qaytish prinsipi asosida yagona tizimga birlashadi.

Ma'muriy huquq sohasi davlatni idora etish jarayonida, ya'ni ijro va farmoyish faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar majmuini o'z ichiga oladi. Boshqaruv faoliyati turlarining xilma-xilligi Ma'muriy huquqning keng ko'lamli va ko'p tarmoqliligini taqozo etuvchi asosiy omildir. Ma'muriy huquq me'yorlari barcha ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatini aniqlaydi hamda davlat boshqaruv organlarini tuzish, ularni qayta tashkil qilish va tugatish tartibini belgilab beradi. Ular fuqarolarning davlat boshqaruv sohasidagi huquq va majburiyatlarini mustahkamlaydi, ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati va mansabdor shaxslarning xulq-atvoriga yagona qonun-qoidalarni belgilab beradi, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va uni qo'llash tartibini ko'rib chiqadi.

Ma'muriy huquq me'yorlari turli ma'muriy-huquqiy munosabatlarning qatnashchilari orasida yuzaga kelayotgan ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida Respublika Prezidenti, barcha darajadagi davlat boshqaruv organlari, davlat xizmatchilari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet mamlakatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) ma'muriy-huquqiy munosabatlarning qatnashchilari jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy huquq tizimi umumiy va maxsus qismlardan iborat. Umumiy qism me'yorlari davlat boshqaruvining asosiy tomoyillarini, Ma'muriy huquq sub'yektlarining huquqiy holatini, davlat xizmati asoslarini boshqaruvining huquqiy shakllari va usullarini davlat boshqaruv tizimidagi qonuniylik va izomni ta'minlash usullari va tartibini mustahkamlaydi.

Turli davlat organlari tomonidan chiqariladigan me'yoriy-huquqiy aktlar Ma'muriy huquqni bayon qilish shakli, uning manbalari bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi mavjud me'yorlarning aksariyat qismi bevosita ma'muriy-huquqiy yo'nalishga ega bo'lgan eng muhim me'yorlar jumlasidandir. Bular, ijro etuvchi hokimiyat organlarining shakllanish va faoliyat asoslarini belgilab beruvchi hamda fuqarolarning davlat boshqaruv tizimidagi huquq va erkinliklarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy me'yorlar sanaladi. Ma'muriy huquq asosiy me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim, mudofaa, joylardagi davlat hokimiyati, sanitariya nazorati va boshqa to'g'risidagi qonunlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat boshqaruv organlarini tuzish, ularni qayta tashkil qilish va tugatish to'g'risidagi, shuningdek, boshqaruv tizimlarini iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy qurilish va h.k. sohalaridagi, turli tarmoqlarni takomillashtirish to'g'risidagi ko'plab qarorlari ma'muriy huquq manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvini tartibga solish ishi O'zbekiston Respublikasi hukumatining, tarmoq va tarmoqlararo davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, joylardagi vakolatli va ijro etuvchi organlarning me'yoriy-huquqiy aktlari bilan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi aktlarni qabul qiladi. Ma'muriy huquq manbalari qatoriga, jumladan, qarorlar, buyruqlar, tarmoq va tarmoqlararo boshqaruv

organlari (vazirliklar, mahkamalar, davlat qo‘mitalari, respublika agentliklari)ning turli xil yo‘riqnomaviy materiallari, shuningdek, joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

Mustaqillik yillarida Ma‘muriy huquq me‘yorlari ancha yangilandi. Chunki, davlatning iqtisodiy funksiyalari, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi va ular faoliyatidagi asoslilik, omilkorlik singari jihatlar ham tubdan o‘zgardi. Markazlashmagan tizimga o‘tish va umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lmagan qator vakolatlarining markaziy organlardan quyi bo‘g‘inlarga o‘tkazilishi jarayoni ro‘y bermoqda.

Ma‘muriy huquqning ijro etuvchi hokimiyat tuzilishini tokomillashtirishda, davlat xizmatining huquqiy asoslarini vujudga keltirishda, bozor iqtisodiyotini tartibga solishda, fuqarolar va tadbirkorlik tizimlari qonuniy huquqlari va manfaatlarining qat‘iy himoya ostiga olinishini ta‘minlashda ahamiyati katta.

Ma‘muriy huquq me‘yorlarini takomillashtirish jarayoni ijro etuvchi hokimiyat organlarida ikki yo‘nalishda ketmoqda. Bir tomondan, ijro etuvchi hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari orasidagi vakolatlarni chegaralash yo‘li bilan, ikkinchi tomondan esa — bajaradigan vazifasiga ko‘ra bir xil tipdagi davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini belgilashda bir xillikni ta‘minlash hamda davlat va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi boshqaruv darajasini yuksaltirish yo‘li bilan ushbu jarayon amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarni boshqarib borishning bozor mexanizmiga o‘tish sharoitida ma‘muriy huquq me‘yorlari yangi iqtisodiy boshqaruv omillarining joriy etilishini nazarda tutadi (litsenziyalash, kvota belgilash, soliq solish va undirish). Bozor iqtisodiyotining ma‘muriy-huquqiy ta‘minlanishi iqtisodiy va ijtimoiy sohalar rivojini prognozlash va dasturiy rahbarlik qilish, O‘zbekistonning ilmiy-texnikaviy salohiyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda davlat mulkini samarali boshqarish va tadbirkorlikni rag‘batlantirishga doir tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin, mamlakatimizning tashkiliy qurilish vazifalarini hal qilishda ma‘muriy huquqning ahamiyati katta. Davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat apparatining ishini yaxshilash, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma‘muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi. Ya‘ni aynan ma‘muriy huquq normalari boshqaruv organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarni tashkil etish, o‘zgartirish yoki tugatish qoidalarini belgilab beradi.

Ma‘muriy huquq nafaqat boshqaruvni, balki boshqariluvchi faoliyatni ham tartibga soladi.

Misol uchun, yo‘l harakati qoidalari, jamoat joyida yurish turish qoidalari, ov qilish, savdo, sanitariya va yong‘indan saqlash qoidalari va h.k.

Shunday qilib, ma‘muriy huquq normalari qanday qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) ma‘muriy huquqbuzarlik hisoblanishi, ma‘muriy javobgarlik turlari va usulini, bunday huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish tartibini o‘rnatadi.

Ma‘muriy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan o‘zaro aloqalari, munosabatlariga kelsak, shuni aytib o‘tish joizki ma‘muriy huquq boshqa huquqiy fanlar bilan chambarchas bog‘liq.

REFERENCES

1. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 19.
2. 2.” Ма’muriy huquq” Е.Ҳоҗийев,Т.Ҳоҗийев Toshkent 2008.
3. 3.<https://fayllar.org/mavzu-mamuriy-huquq-asoslari-reja-mamuriy-huquq-tushunchasi-va.html>
4. Xudoyberdiyeva V.J., Xojiyev Ye.T. Ma’muriy huquq.0‘quv qo'llanma.— T.: TDYuI nashriyoti, 2005.
5. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма»,2004.